

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:16 (66973)

2014-yil

21-aprel

# TONG YULDUZI

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

O'ZBEKISTON, JONIM  
TO'SHAY SOYANGGA!

3-bet

SOGLOM BO'LAY  
DESANGIZ!

BUYUK QURT  
FARZANDLARIMIZ!

Bundan roppa-rosa 13 yil muqaddam, aniqrog'ı, 2001-yilning 25-aprel sanasida yurtimiz yoshlarini ezgu maqsad sari birlashtiruvchi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tashkil topgan edi. O'tgan davr mobaynida Harakat tomonidan farzandlarimizni Vatan ravnaqi yo'lida birlashtirish, ularni mustaqil fikrlaydigan, o'zining qat'iy qarashlariga ega bo'lgan avlod sifatida tarbiyalash maqsadida qator loyihalar amalga oshirildi.

(Davomi 2-betda)



Poytaxtimizda O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, Fuqarolik jamiyati shakllanishini monitoring qilish mustaqil instituti, «Kamolot» YOIH hamda qator tashkilotlar hamkorligida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash, belgilangan vazifalarni sifatli va samarali bajarishga qaratilgan davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

## BARKAMOL AVLOD — MILLAT TAYANCHI

Mamlakatimizda jamiyat rivoji yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarda yosh avlodning faol ishtirokini ta'minlash, yigir-qizlarning o'z fikr va qarashlarga ega bo'lib tarbiyalanishlari yo'lida qator samarali ishlar hayotga tatbiq etilayotir. Bu jarayonda yoshlarga oid bosma ommaviy axborot vositalarining faoliyatini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida bo'lib o'tgan yig'ilishda yuqorida qayd etilgan masalalar yuzasidan so'z yuritilar ekan, yoshlarga oid nafaqat markaziy, balki mamlakatimizning chekka hududlarida faoliyat yuritayotgan bosma nashrlarning bugungi kun holati o'quvchilarning talabiga to'liq javob berishi kerakligi aytib o'tildi. Xususan, nashrlarda milliylik, vatanparvarlik ruhi singdirilgan, atrofda sodir bo'layotgan voqealarni tezkor va xolis yoritilgan maqolalar bilan boyitish, eng asosiysi, tahririyatlarni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash xususida so'z yuritildi.

Belgilangan vazifalar ijrosini sifatli va samarali tashkil qilish uchun viloyat, tuman hokimliklari vakillarini ham jalb qilgan holda joylarda yoshlarga oid bosma nashrlarning holatini o'rganish lozimligi belgilandi. Bu borada sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar malakasini oshirish, yosh jurnalistlarni ish bilan ta'minlash maqsadida seminar-treninglar o'tkazishga kelishib olindi.

Sadoqat ARSLANOVA

## TADBIRKOR QIZ YUTUG'I



yosh hunarmand, bir gal Toshkentda o'tkazilgan san'at haftaligida muvaffaqiyatli qatnashdi. Undagi noyob iste'dodni ko'rgan ustoz, rassom Bahodir aka Bobonazarov shogirdidan bor bilimi-yu e'tiborini ayamadi.

— Bolaligimda duch kelgan buyumga rasm solishim, ustozim ta'biri bilan aytganda, o'ziga xos san'at asarlarini yaratishimga turtki bo'ldi. Mening tasavvurim va dunyoqarashimni esa yurtimizning go'zal tabiati va o'qigan kitoblarim boyitib bordi. Ota-onam

hamisha biz to'rt opa-singilga kitob mutolaa qilishni uqitirib, hatto qanday asarlarni o'qishimizga e'tibor qaratishadi. Shuning uchun bugun erishgan yutug'imning sababchilari ota-onam va ustozlarim, deya baralla aytgim keladi.

Niyatim, kollejni tamomlagach, mahallamdagi tengdoshlarim-uka-singillarimga hunar o'rgatib, yangi ish o'rnlarni va ajoyib san'at asarlarini yaratmoqchiman. Shuningdek, o'z mahsulotlarim orqali xorijiy davlatlarda bo'lib, yurtimizning betakror san'atini dunyoga tanitishni orzu qilaman, — deydi hunarmand qiz uzoq manzillarni ko'zlab.

Aziz o'quvchim! Shahrizodning izlanuvchanligini ko'rib, mamlakatimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilayotganiga yana bir bor amin bo'ldingiz. Shunday ekan, siz ham yangi tashabbuslar ko'rsating, orzular sari dadil qadam tashlang, deymiz. Shunda yurtimiz taraqqiyotiga o'zingizning munosib hissangizni qo'shgan bo'lasiz.

Sayyora QODIROVA

## BUYUK YURT FARZANDLARIMIZ!

(Davomi. Boshi 1-betda)



## AMOLOT

Bu haqda bizga Harakatning Markaziy Kengashi bo'limi mudiri Ma'mur BAYONOV quyidagilarni so'zlab berdi:

— «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati respublikamizdagi yirik jamoat tashkilotlaridan biri sifatida hozirgi kunda 3,9 million yoshlarni o'z atrofida jamlagan. Tashkilotimiz yurtimizdagi ta'lim maskanlarida tahsil olayotgan, korxonada va muassasalarda faoliyat olib borayotgan yoshlarning tashabbuslari bilan tashkil etilgan 15 mingdan ortiq boshlang'ich tashkilotiga ega. Shu bilan birga, Harakat tarkibida «Vatan, do'stlik va xalqparvarlik uchun» shiori ostida 10 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 2 millionga yaqin bolalarni o'z safida birlashtirgan «Kamalot» bolalar tashkiloti ham faoliyat yuritayotgani quvonarlidir.

Kelajak avlodni sog'lom, baquvvat bo'lib voyaga yetishini ta'minlash maqsadida, Harakat tomonidan ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, «Kamolot» YOIH tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilarining bandligini ta'minlash, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, kasanachilikni rivojlantirish hamda ularga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatish orqali mamlakatimizda yangi ish o'rnlarni yaratish maqsadida 2011-yildan buyon ana'naviy tarzda «Mening biznes g'oyam» tanlovi o'tkazilmoqda. Birgina 2012-yilning o'zida tanlovda 48 mingga yaqin o'quvchilar ishtirok etib, ulardan tadbirkorlik ishlarini boshlashi uchun 2 ming nafariga tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar berildi.

Masalan, o'tgan 2013-yilda mazkur tanlov bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasining kimyo sanoat kolleji o'quvchisi

Xalqnazar Abitov «Yosh fermer» loyihasi bo'yicha qoramol sotib olish uchun, Samarqand viloyati, Payariq tumanidan Sultonbek To'ranov chorvachilikni yo'lga qo'yish uchun, Jizzax viloyati, Zomin tumanidan Bobur Akbarov kichik chorvachilikni yo'lga qo'yish uchun, Andijon viloyati, Izboskan tumanidan Elmurod Hojimatov asalarichilikni yo'lga qo'yish uchun bank kreditlarini qo'lga kiritishdi.

Bundan tashqari, Harakat tomonidan «Shunqorlar» harbiy sport musobaqasi, «Yosh chegarachi» harbiy vatanparvarlik musobaqasi, «Kamolot» — TUR velomarafoni, «Kamolot» shaxmat taxtasi» turnirlarining o'tkazilishi ham yoshlarimiz orasidan ko'plab iste'dod egalarini kashf etish imkonini bermoqda. Birgina shaxmat bo'yicha o'tkazilgan «Kamolot» shaxmat taxtasi» turnirida respublikadagi 9,5 mingta umumta'lim maktablari, 1,5 mingdan ziyod kasb-hunar kolleji va akademik litseylarining

245 ming nafariga yaqin o'quvchilari ishtirok etgani quvonarlidir.

Shuningdek, 2013-yilda O'zbekiston Respublikasining 22 yilligiga bag'ishlab yurtimiz bo'ylab Harakat tomonidan 12 ta loyihani o'z ichiga olgan «Biz buyuk yurt farzandlarimiz!» shiori ostida festivallar tashkil qilindi. Mazkur tadbirlarga jami 1 millionga yaqin yoshlar ishtirok etishdi. Farzandlarimizni tamaki chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish kabi salbiy illatlardan himoyalash maqsadida festival doirasida «Alkogol va tamaki mahsulotlarining tarqatilishi va iste'mol qilinishini cheklash to'g'risida»gi Qonun ijrosi ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishga qaratilgan «Vijdonli sotuvchi» aksiyasi tashkil etildi.

Bir maqsad yo'lida birlashib, yuksak cho'qqilar sari olg'a intilayotgan yoshlarimizning ertasi bundan-da yorug' bo'lishiga tilakdoshmiz.

Ozoda TURSUNBOYEVA



# O'ZBEKISTON, JONIM TO'SHAY SOYANGGA!



Shoir hayotni dildan his etib ijod qilgani bois, xalqimiz uning bitganlarini qalbdan sevib ardoqlaydi. Muhammad Yusufning odamiylik, mehr-muhabbat va tinchlik mavzusidagi purma'no satrlari, o'quvchi qalbidagi adabiyot ezgulik nurini taratib turuvchi quyoshdir, degan taassurot uyg'otadi. U o'zining Vatani haqida yozgan she'rda:

O, ota makonim,  
Onajon o'lkam,  
O'zbekiston, jonim to'shay soyangga.  
Senday mehribon yo'q,  
Seningdek ko'rkam,  
Rimni alishmasman bedapoyangga...

deya, Vatanni bor bo'y-basti bilan ko'z oldimizda namoyon etadi. Bir hovuch tuprog'imiz dunyodagi jamiki boyliklardan afzal ekanini isbotlaydi.

Ayni kunlarda shoir tavalludining oltmish yilligi

She'riyat bo'stonining rang-barang chechaklaridan saralab, elga luhfa etish baxti har kimga ham nasib elavermaydi. O'zining xalqona ohangda yozilgan ijod namunalarini bilan etning qalbidan chuqur joy egallagan, O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning she'rlari qo'shiq bo'lib kirmagan xonadon yo'q.



munosabati bilan joylarda o'tkazilayotgan tadbirlarda o'quvchilarning hayqirib: Adaying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston... deya she'r o'qishlaridan qalbimiz faxr-iftixorga to'ladi. Ana shunday tadbirlardan biri poytaxtimizning Uchtepa tuma-



nidagi 197-umumta'lim maktabida bo'lib o'tdi.

«Mangulikka daxldor umr» nomli ma'naviy-ijodiy kechada sevimli shoirning umr yo'ldoshi shoirna Nazira as-Salom, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zolari Mahmud Sattoriy hamda shoir Axtamquli ishtirok etdi.

Dastlab, maktab rahbari Muhtabar Yaminova so'zga chiqib, shoirning boy ijodiy merosi haqida to'liqlanib so'zladi. So'ngra, o'quvchilar ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Zarofat Abduazimova boshchiligidagi shoir she'rlarini jaranglatib o'qidi. Tadbir davomida «Mohir qo'llar» to'garagi a'zolarining turli gazlama va matolardan tayyorlagan o'yinchoqlari va bahoriy pishiriqlarni did bilan dasturxonaga bezatishlari kecha qatnashchilarida katta taassurot uyg'otdi.

A. KARIMOV

## MEHRIMIZ OR'IDI

Yurtimizda shoir Muhammad Yusuf nomini bilmaydigan va uning she'rlarini yod olmagan tengdoshim bo'lmas kerak?! Ayniqsa, biz yoshlar ijodkorning ona Vatani haqidagi she'rlarini o'qiganimiz sari qalbimizda shoir ijodiga bo'lgan mehrimiz ortib boraveradi.

Uning she'rlari biz yosh avlod qalbiga o'zlikni anglash, milliy g'urur va iftixor tuyg'ularini, ezgu fazilatlarini jo' etishda muhim ahamiyatga ega.

Barno MAMAJONOVA,  
Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 59-DIUM 5-«B» sinf o'quvchisi

## OHANRABO SATRLAR

Kuni kecha ta'lim dargohimizda Muhammad Yusuf ijodiga bag'ishlangan tanlov bo'lib o'tdi. Unda 7-9-sinf o'quvchilari bahr-u bayt ayitish va sahna ko'rinishi tayyorlash shartlari bo'yicha o'zaro bellashishdi. Tadbirda sinfimiz o'quvchilari ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Oydin opa Qulanovaning ishonchlarini oqlagan holda yaxshi natijalarni qo'lga kiritdi.

G'oliblarga maktab ma'muriyati tomonidan «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alari topshirildi.

Latofat XOLIIYOROVA,  
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

## QALBIMIZDA YASHAYDI

Ustozim adabiyot darsida uyga vazifa sifatida Muhammad Yusuf she'rlaridan yod olishni aytgach, maktabimiz kutubxonasidan shoirning she'riy to'plamini oldim. Kitobni varaqlar ekanman, ayniqsa, ijodkorning Vatani mavzusidagi she'rlari e'tiborimni o'ziga tortdi. Jumladan,

Yurt ishida yonmas yurak – yurak emas,  
Yurt qadrini bilmaganlar kerak emas,

deb yozganida, sevimli shoirimiz biz yoshlarni bugungi tinch hayotni, davlatimiz mustaqilligini ko'z qorachig'idek asrab-avaylab yashashga undagandek, go'yo. Eng asosiysi, shoirning sodda va samimiy misralari qalbm to'ridan joy egalladi.

Marjona ERGASHEVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 34-umumta'lim maktabining 6-«B» sinf o'quvchisi

## ULUG'IMSAN, VATANIMI!

Yolg'izim,  
Yagonam deymi,  
Topingan koshonam deymi,  
O'zing mening ulug'lardan  
Ulug'imsan, Vatanim...



Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 313-umumta'lim maktabi o'quvchilari shoir Muhammad Yusuf tavalludiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirda bu qo'shiqni jo'r bo'lib kuylaganida, zalda yig'ilganlarning barchasini hayajon bosdi. Ayniqsa, kechada o'quvchilar tomonidan ijro etilgan sahna ko'rinishlari, bir-biridan go'zal she'rlar tadbir qatnashchilariga xush kayfiyat ulashdi.

Shundan so'ng, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoirna Umida Abduazi-



mova so'zga chiqib, Muhammad Yusuf Mustaqillikni, ona Vatanimiz istiqbolini o'lmas misralar bilan tarannum etgan, o'zbek she'riyatiga munosib hissa qo'shgan shoir ekanligini faxr bilan tilga oldilar. Uning betakror she'rlari katta-yu kichikka birday tushunarli, sevimli ekanini ta'kidladilar. O'z

navbatida, shoirna o'quvchilarga ko'p kitob mutolaa qilish, inson dunyoqarashining kengayishiga xizmat qilishini aytib o'tdilar.

Tadbir so'ngida yana qo'shiq yangradi. «Ulug'lardan ulug'imsan, Vatanim...».

Muzaffar AHMEDOV.  
Sahifadagi suratlar muallifi:  
Mahmudjon AZIMOV



Navoiy bobomizning adabiy merosi xalqimiz ma'naviy xazinasining bezagi va ziynatidir. Uning axloqiy-ta'limiy yo'sinda bitilgan «Mahbub ul-qulub» asarida ta'lim-tarbiya, odob-axloq va go'zal fe'l-atvorlar qatorida insondagi yomon xislat va illatlar xususida so'z boradi. Ushbu asarning muqaddima bobida «Har ko'y va ko'chalarda yuguribmen va olam ahlidin har nav' elga o'zumni yetkuribmen va yaxshi-yamonning af'olin bilibmen va yamon-u yaxshi xislatlari tajriba qilibmen», deb ta'kidlashidan Navoiy bobomiz o'z umri davomida hayotning ko'p achchiq-chuchugini totgani, yaxshi-yomon tabiatli va xislatli odamlarga ko'p duch kelganidan keyin mazkur ajoyib asarga qo'l urganini bilib olamiz. Shuningdek, ushbu asar shoir hayotining oxirgi davri, ya'ni 1500-yilda muayyan hayotiy tajribaga ega bo'lganlaridan keyin bitilgani ham fikrimizning yaqqol isbotidir.

«Mahbub ul-qulub»da biror-bir munosabat va holat taqozosiga ko'ra 127 ta tanbeh keltirilib, bu tanbehlar biror mavzuni yanada yorqinroq tasavvur etish va atroficha mushohada yuritishga yordam beradi. Tanbeh so'zi aslida arab

tilida uyg'otish, ishora qilish, ogohlantirish va izohlash kabi bir qancha ma'nolarni anglatadi.

Tanbeh ko'proq o'quvchini ogohlikka chorlab, biror yomon

## NAVOIY BOBOMIZ TANBEHLARI

xislat yoki illatdan xalos bo'lish yoki unga yaqin yo'lmaslikka chaqiradi. Shu ma'noda aytish mumkinki, tanbeh insonning ma'naviyati va xulq-atvori to'g'ri shakllanishida katta ahamiyatga ega. Navoiy bobomizning ayrim tanbehlari xalqimiz tilida hikmatli so'z va maqol sifatida keng qo'llaniladi: «Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim», «Oz-o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur», «Har kimki so'zi yolg'oni zohir bo'lg'och u yolg'on», «Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz» va «Sabr bila ko'p bog'liq ish yechilur, ishda oshuqqon ko'p toyilur, ko'p toyilg'on ko'p yiqilur» kabi xalqona tilda aytilgan

sodda va purma'no tanbehlar kitobxon yodida saqlanib, uning qalbiga yetib boradi. «Umrni g'animat bil, sihat va amniyatqa shu-



kur qil», degan tanbehning ma'nosini o'y-lab ko'raylik. Bu hikmatning mazmun-mohiyati juda keng. Ul insonni uch narsadan ogohlikka chorlash va shu uch narsani boy bermaslik, ularning shukrini ado etish kerakligiga ishora qilingan. Bu uch narsa – umr, sog'lik va xotirjamlikdir. Chunki umr qadrini to'g'ri baholay olmagan kishi uni befoyda ishlarga sarflaydi va uning g'animat ekanini to'g'ri anglamaydi. Sog'lik va xotirjamlik ham aslida katta ne'matdir. Agar sog'lik bo'lmasa, dunyodagi har qanday lazzati

narsa ham ko'ngilga quvonch olib kirmaydi. Agar xotirjamlik yo'qolsa, inson qo'li ishga bormaydi, faqat tinch va xotirjam bo'lish tashvishida iztirob chekadi. Demak, Navoiy bobomiz bu hikmatda umrni g'animat bilib, uni bekorga sovurmaslikdan ogohlantirsa, sog'lik va xotirjamlikni deb shukur qilish kerakligini uqtirmoqda. Yana bir tanbehlari: «Chin so'zni yolg'onga chulg'ama, chin ayta olur tilni yolg'onga bulg'ama», «Yolg'onchi kishi emas, yolg'on aytmog'eran (mard)lar ishi emas», deb keltirgan. Bu hikmatda yolg'onchi kishini inson emas, yolg'on so'zni tilga oladigan kishi mard emas, deyilmoqda. Xullas, Navoiy bobomiz «Mahbub ul-qulub» asarida keltirilgan tanbehlarda pand-nasihah, yaxshilikka da'vat, yomonlikdan qaytarish, go'zal xislat va fazilatlar egasi bo'lishga undash, yomon illatlardan qochish kabilar o'rin olganini ko'ramiz.

**Bobomurod ERALI,**  
tadqiqotchi



Prezidentimiz tomonidan 2014-yilning «Sog'lom bola yili» deb e'lon qilinishi yurtdoshlarimizni xushnud etdi. Negaki, sog'lom bolani dunyoga keltirish, ularni yurt koriga yaraydigan salohiyatli farzandlar etib tarbiyalash xalqimizning ezgu maqsadlaridan biridir.

Quvonarlisi, bu orzu-umidlarimiz ro'yobini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan xayrli ishlar misolida ko'rib turibmiz. Jumladan, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodni sog'lom dunyoga kelishini ta'minlash maqsadida yurtimizda ko'p tarmoqli bolalar shifoxonalari, oilaviy poliklinika va qishloq vrachlik punktlari faoliyat yuritmoqda. Bu kabi tibbiyot maskanlarida malakali shifokorlar aholi salomatligini saqlash yo'lida sidqidildan mehnat qilmoqdalar.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalari, umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda, shuningdek, ko'plab sport inshootlarida sport to'garaklari tashkil etilganki, bu yosh avlodni har jihatdan sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishiga xizmat qilmoqda.

Ishonamanki, tengdoshlarim yaratilayotgan sharoitlardan unumli foydalanib, yurtimiz koriga yaraydigan insonlar bo'lib ulg'ayadilar.

**Nodira ARSLONOVA,**  
P. F. Borovskiy nomidagi  
Toshkent tibbiyot kolleji o'quvchisi

## ISTIQLOL G'UNCHALARI

Yurtimizning so'lim go'sharlaridan biri Navoiy shahrida «Istiqlol g'unchalari» an'anaviy bolalar ijodiyoti festivali bo'lib o'tdi. Tadbirida viloyatda faoliyat yuritayotgan 11 ta «Barkamol avlod» bolalar markazlaridagi jami 158 to'garaklarga qatnovchi tengdoshlaringizning o'z qo'llari bilan yasagan buyumlari namoyish etildi. Haykaltaroshlik, munchoqli bezak, naqsh o'ymakorligi, to'quvchilik yo'nalishlari bo'yicha qo'lda ishlangan buyumlar tadbir ishtirokchilarida hamda mehmonlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Festival shahardagi «Amfiteatr»

**Manzura UBAYDULLAYEVA**

## DO'STLIK - MUQADDAS TUYG'U

Do'stlik – ilohiy va muqaddas tuyg'u. Uni qadriga yetgan, asrab-avaylagan inson hayotda ulkan muvaffaqiyatlarga erishadi, har qanday qiyinchilikni sabr bilan yengib o'tadi. Bejizga xalqimiz: «Do'sti borning baxti butun», deb aytmagan.

Men sinfimizdagi barcha qizlar bilan yaqin dugonaman. Biz bir-birimizni hamisha qo'llab-



quvvatlaymiz. Niyatim, dugonalarim bilan do'stona munosabatlarimizga ko'z tegmasin. Dunyodagi barcha insonlar bir-biriga do'st tutinishsin!

**E'zoza USMONXO'JAYEVA,**  
poytaxtimizning  
Shayxontohur tumanidagi  
34-umumta'lim maktabining  
5-sinf o'quvchisi



## The yellow cat and the mice

The yellow cat lives in a small house. In the kitchen of cat's house live little mice. The cat is very big and every day she eats one or two mice. But on her birthday the cat does not eat mice. Every year all the mice come to the cat's birthday party. Of course, the cat is very glad to see the mice. They give her birthday presents: cakes, bottles of milk and interesting toys. The toys are made of paper and cotton. The cat likes the cakes and milk. She likes the toys too.

This year the mice come to the cat's birthday party and say «Here is a blue ribbon with a small bell for you».

The ribbon is very nice, it is made of silk. The cat takes the ribbon, puts it on and says: «Thank you. I like the ribbon with the bell very much. I'm going to wear it all the time». The mice very happy. Now they know the yellow cat comes. When the mice hear the bell, they run away.



## Malla mushuk va sichqonlar

Kichkinagina uychada bir malla mushuk yashar ekan. O'sha uying oshxonasida esa mitti sichqonlar unga qo'shni bo'lib yasharkanlar. Mushuk juda katta bo'lib, har kuni bir yoki ikkita sichqonni tutib yer, faqat tug'ilgan kunidagina ularga tegmas ekan. Barcha sichqonlar har yili uning tug'ilgan kuniga kelishni kanda qilmas edilar. Albatta, mushuk sichqonlarni ko'rib mamnun bo'lardi. Chunki ular mushukka kulchalar, idishda sut va ajoyib o'yinchoqlar keltirishardi. O'yinchoqlar qog'oz va paxtadan yasalgan bo'lardi.

Mushuk esa shirinliklar, sut va o'yinchoqlarni juda yaxshi ko'rardi. Bu yili ham sichqonlar mushukning bazmiga kelib: «Mana bu moviy tasmali qo'ng'iroqcha sizga», deyishibdi. Moviy tasma juda ajoyib bo'lib, u ipakdan tayyorlangan edi. Mushuk sovg'ani taqib olib, xursand bo'ldi. «Katta rahmat, menga bu sovg'a judayam yoqdi. Endi uni doim taqib yuraman», dedi. Sichqonlar juda-juda xursand bo'lishdi. Sababi, endi malla mushuk kelayotgan paytda qo'ng'iroqcha jiringlab, ularni ogohlantiradi.

Temur TANGRIBERGANOV,  
O'zMU jurnalistika fakulteti talabasi

I sing  
You sing  
We sing  
They sing

BUT

He sings  
She sings  
It sings

Lekin III shaxs birlikda egadan so'ng kelgan fe'llarga «s», agar so'zning oxiri s, ss, ch, sh, o, x harflari bilan tugasa, fe'lga «es» qo'shiladi.

For example: I usually get up at 6 o'clock in the morning. He watches TV every day.



Present Simple Tense  
Oddiy hozirgi zamon

Oddiy hozirgi zamon har doim yoki har kuni sodir bo'ladigan umumiy ish harakati uchun ishlatiladi.

SUBJECT+VERB  
Ega+kesim

Inkor shaklida esa do/does yordamchi fe'llaridan so'ng «not» inkor yuklamasi qo'yiladi va inkor gap yasaladi:  
Subject + do/does not + verb

Gulnoza doesn't drink coffee. They don't watch television very often.

Remember: ushbu zamonning kalit so'zlari: usually, often, always, sometimes, seldom, never, every day/week/ month/year.

Savol shaklida esa do/does ni yordamga chaqiramiz va ular egadan oldinga o'tganda, savol gapga aylanadi:

Do/Does + subject + verb?

Do you live in Tashkent? Yes, I do. No I don't. Does your sister speak English? Yes she does, No she doesn't.

Complete the sentences.

Use the correct form of these verbs:

Gaplarni to'ldiring. Ushbu fe'llarni to'g'ri shaklda yozing:

Boil, close, cost, go, have, like, meet, open, speak, teach, wash.

1. She is very clever. She speaks four languages.

2. We usually ..... supper at 7 o'clock.

3. Manzura ..... films. She often ..... to the cinema.

4. Water ..... at 100 degrees Celsius.

5. In Britain the banks ..... at 9.30. in the morning.

6. Amir Temur's Museum ..... at 5 o'clock every evening.

7. This hat is expensive. It ..... a lot of money.

8. Nazira is a teacher. She ..... English to young children.

9. Your work is very interesting. You ..... a lot of people.

10. Xolida ..... her hair twice a week.



O'zDJTU talabasi  
Dinara SHAKIROVA tayyorladi

## Crossword

Ushbu savollarning javobini ingliz tilida toping:

1. Daladagi sariq oltin. 2. Ayiqning sevimli taomi. 3. Yer sharining o'rtasidan kesib o'tuvchi chiziq. 4. Yomg'ir yoqqanda kerak bo'ladigan buyum. 5. Barmoq uchi. 6. Tanasi yashil rangda bo'lgan yirtqich jonzo. 7. O'quvchining baholari to'planadigan daftar. 8. Aqlni charxlovchi o'yin. 9. Har kunimiz .... bo'lsin.



Kumushbibi TOSHMIRZAYEVA,  
Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanidagi 33-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi



JAHON BOLALAR SHE'RIYATIDAN



ERTAROQ TURSANG...

Erta yotib,  
Saharda tursang –  
Tanang aslo dard  
Ko'rmas bilsang.

UKAMNING KO'YLAGI

Ukamning ko'ylagini,  
Yuvdim men zavqqa to'lib.  
Mehribonim ko'rinar,  
Uzoqdan oppoq bo'lib.



OLA SIGIR

Sutingdan ola sigir,  
Hech bo'lmasa ozroq ber.  
Bola mushukchalarim,  
Kutar ushoqchalarim.  
Bir qoshiqcha qaymoq ber,  
Suznami yo sariyog' ber.  
Sigirning suti har dam,  
Ichganni qilar bardam.



MUSHUKLARNING SAVOL-JAVOBI

Mushuk mushukdan so'rar:  
– Bormi mushukda tirnoq?  
– O'ylab boq-chi, tirnoqsiz  
Osonmi sichqon tutmoq?

Mushuk mushukdan so'rar:  
– Mushuk kimning onasi?  
– Qarib aynib qoldingmi,  
Bizlar uning bolasi.

Qambar OTA tarjimasi



BAHOR SIZGA O'XSHAYDI, ONA

Quyoshdayin sochguvchi yog'du,  
Tilagingiz hamisha ezgu.  
Siz eng shaffof, eng tiniq tuyg'u.  
Kalom aytay xush, oshiqona.  
Bahor sizga o'xshaydi, Ona.

G'uncha aksi dudog'ingizda,  
Nimtabassum yonog'ingizda.  
Cheksiz mehr qarog'ingizda,  
Nurga to'lar siz kirgan xona.  
Bahor sizga o'xshaydi, Ona.



Chin insonlik xislati sizda,  
Gul ochilar siz bosgan izda.  
O'gitingiz biz o'g'il-qizda,  
Borlingiz ulug' shukrona.  
Bahor sizga o'xshaydi, Ona.

Siz iforsiz, muattar asl,  
Siz ko'klamsiz bebaho fasl.  
Mehr-u muhabbatda bemisl,  
Bir lutf etdim aylab bahona:  
Bahor sizga o'xshaydi, Ona.

Gulhayo URALOVA,  
Bekobod shahridagi Qurilish va  
kommunal xo'jaligi  
kasb-hunar kolleji o'quvchisi



QUVNAB YOG'AR YOMG'IRLAR

Erta bahor chog'ida,  
Quvnaab yog'ar yomg'irlar.  
Oh, bu go'zal yomg'irlar,  
Bolalikni eslatar.

Ko'ngil to'lib turganday,  
Bulutlar yig'laganday,  
Mayli, mayli, yog'a qol,  
Bag'ring menga ocha qol.

Bobodehqon suyunar,  
Dalalarda kuyinar.  
Chunki yomg'ir tufayli  
Hosil har yil mo'l bo'lar.

Yomg'ir yog'sa gul unar,  
Ko'ksimizda dil unar.  
Goho o'ylab qolaman,  
Qalbga quloq solaman.  
Yomg'ir qanday yog'ishin,  
Bir kun bilib olaman.

Mohira OQILXONOVA,  
Toshkent davlat Sharqshunoslik  
instituti qoshidagi akademik  
litseyning 1-bosqich o'quvchisi

ADABIYOT – HAYOT MASH'ALI

Navoiy bobomning  
Qalami tekkan.  
Dillarga yaxshilik  
Urug'in ekan.  
Hech qachon o'chmagay  
U yoqqan gulxan.  
Adabiyot asli –  
Hayot mash'ali!



Dunyolar lol qolgan  
Ona elimga.  
Oltinday jaranglab  
Turgan tilimga.  
Mening qalamim bor  
Shukur, qo'limda.  
Quyosh havas bilan  
Boqar yo'limga.  
Adabiyot asli –  
Hayot mash'ali!

Iroda HOJIYEVA,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon  
tumanidagi 10-umumta'lim  
maktabining 6-sinf o'quvchisi

Qadimda bir xonadonda egizak opa-singillar dunyoga kelibdi. Go'dakligida onalari olamdan o'tgach, ular otasi qo'lida katta bo'lishibdi. Ota qizlariga bor mehrini berib, ularni bekam-u ko'st voyaga yetkazibdi.

Kunlar ketidan oylar, oylar ketidan esa yillar o'tibdi. Bu orada to'ng'ich qiz Fotima mehnatkash, aqlli qiz bo'lib ulg'ayibdi. Zuhra esa aksincha, erka, tantiq, dangasa bo'lib voyaga yetibdi.

Fotima har kuni erta bilan turib hovlilarni supurib-sidirar, uyimizga qut-baraka kirsin, deya saharda ko'cha darvozasini ochib qo'yarkan. Zuhra bo'lsa, kech uyg'onib, qo'lini sovuq suvga urmas, nonushtani ham xarxasha bilan qilarkan.

Bir kuni qizlarning otasi ishdan qaytib, darvozani taqillatibdi. Zuhra borib eshikni ochibdi. Uning kiyimlari dazmollanmagan, sochlari taralmaganligini ko'rib, ko'chada o'ynab yurgan qizlar bir-biriga:

– Zuhrani qaranglar, ust-boshi kir ahvolda ko'chaga chiqishga uyalmaydimi? – deb uni masxara qilishibdi.

Zuhra bu so'zlardan qattiq uyali, o'ziga to'g'ri xulosa chiqaribdi. Opasi Fotimadan o'rnak olib,



kiyimlarini doimo ozoda tutishga, uylarni saranjom-sarishta qilishga odatlanibdi. Shundan so'ng, Zuhraning ustidan mahalladagi qizlar kulmaydigan, aksincha, unga havas bilan qaraydigan bo'lishibdi.

Mehribon otajonisi shunday aqlli, odobli, mehnatkash qizlari borligidan faxrlanib yurar emish.

XATOSINI TUZATDI




Gavharoy RIXSIBOYEVA,  
Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanidagi  
12-umumta'lim maktabining 5-«V» sinf o'quvchisi



Yosh sportchilarimizning xalqaro maydonlarda qo'lg'a kiritayotgan yutuqlari, ular erishayotgan muvaffaqiyatlar zamirida mamlakatimizda bolalar sportiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, farzandlarimizning nurli istiqboli yo'lida amalga oshirilayotgan xayrli ishlar yotadi. Buni yoshlarimizni omnaviy tarzda sportga jalb etish, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, farzandlarimiz orasidan haqiqiy iste'dod egalarini izlab topish va ularni o'sib-ulg'ayishi, kamolga yetishi uchun yaratilayotgan sharoitlar misolida ko'rish mumkin.

## BOKSCHILARIMIZ G'ALABASI



Eng quvonarlisi, yosh sportchilarimiz bu kabi g'amxo'rliklarga javoban xalqaro musobaqalarda Vatanimiz nomini munosib himoya qilmoqda.

Kuni kecha Bolgariyaning Sofiya shahrida start olgan boks bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi jahon chempionatini ham yosh charm qo'lqop ustalarimiz g'alabalar bilan boshladi. Ushbu nufuzli musobaqada sayyoramizning 105 mamlakatidan 600 nafardan ziyod sportchi sovrinli o'rinlar va shu yilning 16–28-avgust kunlari Xitoyning Nankin shahrida o'smirlar o'rtasida bo'ladigan II Olimpiya o'yinlari yo'llanmalari uchun bahslashmoqda. Musobaqalar yakunida har bir vazn toifasida kuchli beshlikka kirgan sportchilar ushbu huquqqa ega bo'ladi.

Vazni 49 kilogrammgacha bo'lgan bokschi bahsida hamyurtimiz Sulaymon Latipov turkmanistonlik Bayramxon Permanov ustidan ishonchli g'alaba qozondi. 56 kilogramm vazn toifasida yurtimiz sharafiga himoya qilayotgan Shukurjon Rahimov gruziyalik tengdoshi Ucha Maisuradzeni taslim etib, raqibini keyingi bosqichga chiqish imkoniyatidan mahrum etdi. 60 kilogrammgacha bo'lgan yosh charm qo'lqop ustalari o'rtasidagi bahslarda ishtirok etayotgan Iqboljon Xoldorov misrlik yosh bokschi Muhammad Sayidilalni ikkinchi raunddayoq texnik nokautga uchratib, musobaqaga katta tayyorgarlik ko'rganini isbotladi.

Shuningdek, o'z vazn toifalarida Abdulhay Shorahmatov, Bektemir Meliqo'ziyev va Kozimbek Mardonov ham navbatdagi bosqichga yo'l oldi.

Yosh bokschi bizga keyingi bahslarda omad tilaymiz.

S. TURSINOV

## TURDIXON - OSIYO CHEMPIONI

Toshkent shahrida sport gimnastikasi bo'yicha o'smirlar o'rtasidagi Osiyo chempionatida hamyurtimiz Turdixon ISLOMOVA oltin medalni qo'lg'a kiritdi.

Olimpiya o'yinlari yo'llanmalari uchun kechgan bahslarda o'zbekistonlik sportchilar o'z oldilariga qo'ygan vazifani sharafla bilan bajarib, II o'smirlar Olimpiadasining ikkita yo'llanmasiga ega bo'ldi.

Osiyo chempionatining so'nggi kunida o'smirlar va qizlar sport gimnastikasining alohida snaryadlari bo'yicha qit'a chempionligi uchun bahslashdi.

Musobaqaning qizlar o'rtasidagi bahslarida iqtidorli gimnastikachimiz Turdixon Isloмова xoda ustida mashq bajarish bo'yicha 14,075 ball jang'arib, Osiyo chempioni degan sharafli nomga sazovor bo'ldi.

Erkin mashq bajarishda ham o'z mahoratini namoyish etgan Turdixon 13,75 ball bilan bronza medalni qo'lg'a kiritdi.

Osiyo chempionatida Xitoy, Yaponiya, Tailand, Qozog'iston sportchilari ham g'olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi.

Shoh  
MUHAMMAD



Poytaxtimizdagi «Jar» sport sog'lomlashtirish majmuasi sportga ixtisosmand yoshlar bilan doimo gavjum. Bu yerda tashkil etilgan sport to'garaklarida shug'ullanayotgan yoshlar o'z salomatliklarini tiklash barobarida respublika va xalqaro musobaqalarda muntazam qatnashib, qator yutuqlarni qo'lg'a kiritib kelmoqda. Buni «Qo'l jangi» to'garagi faoliyati misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

## SOG'LOM BO'LAY DESANGIZ...

– Birinchi galdagi vazifamiz bolalarning jismonan va ruhan sog'lom bo'lishlariga erishish, – deydi to'garak rahbari, tajribali murabbiy Mahmud aka Suyarov. – Bu yo'lida shogirdlarimga o'z bilganlarimni o'rgatishdan aslo charchamayman.

– **Qo'l ostingizdagi sportchilarning oila va maktabdagi hayotlaridan ham xabardormisiz?**

– Albatta. Ularning ota-onalari bilan doimo muloqotda bo'lib turaman. Qolaversa, kundalik daftarlaridagi baholarini muntazam nazorat qilib boraman. Sportchining yuksak axloq-odobga ega bo'lishi mening bosh shiorim.

– **Shogirdlaringiz orasida iqtidorlilari juda ko'p bo'lsa kerak?!**

– Yosh sportchilar mashg'ulotlar jarayonidagi sidqidildan mehnat qiladi, o'z ustida ishlashdan aslo charchamaydi. Ayniqsa, shogirdim Oybek Murodovning intiluvchanligi, musobaqalarda erishayotgan yutuqlari ustoz sifatida meni xursand qilmoqda.

Oybek poytaxtimizning Yakkasaroy tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 2-«V» sinfida a'lo baholarga o'qiydi. U 2011-yildan buyon mazkur sport turi bilan muntazam shug'ullanib, katta-kichik musobaqalarda ko'plab yutuqlarni qo'lg'a



kiritib kelmoqda. Mashg'ulot chog'i o'ta intizomli, murabbiy topshiriqlarini aniq bajarishga harakat qilayotgan yosh sportchining intilishlarini ko'rib, uning kelajagi porloq ekaniga ishonдик.

– Oybek uchinchi farzandimiz, – deydi o'g'lini mashg'ulotlarga olib kelgan Zilola opa Murodova. – O'g'il bola yoshlikdan jismonan sog'lom, shijoatli va mard bo'lib ulg'ayishi lozim. Shuning uchun farzandimizni sport bilan shug'ullanishini istadik. O'tgan vaqt davomida o'g'lim ham jismonan, ham ruhan chiniqdi. Birinchi navbatda qat'iy intizomga o'rgandi. Maktabda a'lo o'qishga, tadbirlarda faol ishtirok etishga intilmoqda.

**Murabbiy va ota-onalar bilan suhbatimiz uzoq davom etdi. Yosh sportchilarning bir-biridan go'zal chiqishlarini kuzata turib, ular orasida o'zining ham farzandlarim bo'lishini juda-juda xohladim.**

Yusuf ABDULLAYEV.  
Muallif olgan surat



«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etilgan ommabop eng yangi adabiyotlar



Mazkur ruknimizni kuzatib borayotgan aziz kitobxon o'quvchilarimiz, bu gal qanday asarlar bilan tanishar ekanmiz, deya qiziqayotgan bo'lsangiz kerak-a? Agar shunday bo'lsa, bundan bag'oyat xursandmiz. Negaki, sizlarni yangidan yangi kitoblar bilan tanishtirish, bu orqali qalbingizda ezgu fazilatlarining kurtak otishiga oz bo'lsa-da, hissa qo'shish bizga ham mamnunlik baxsh etmoqda.

### SHE'RIY JAVOHIR

Nashriyot-matbaa ijodiy uyi tomonidan chop etilgan «Onajon» nomli she'riy to'plamdan xalqimizning sevimli va taniqli shoirlari bilan bir qatorda iste'dodli tengdoshlarining ijod namunalari joy olgan. To'plovchi va so'zboshi muallifi Ashurali JO'RAYEV ta'kidlaganlariday, ona baxti – farzandlar baxti, oila baxti jamiyat baxtidir.

Kitobda berilgan bir-biridan mazmunli she'rlarda aziz onalarimiz sabr va qanoat timsoli, mehr bulog'iga qiyoslanadi. O'qiganingiz sari bu mo'tabar zotni ulug'lashda, madh etishda ijodkorlar chin ma'noda yurak haroratini qog'ozga to'kkanlariga guvoh bo'lasiz.

### QISSADAN HISSA

Yaqinda taniqli adib Temur Ubaydulloning «Pastlab uchgan turnalar» qissalar to'plami nashrdan chiqdi. Muallif asarda o'zi kuzatgan hayotiy voqealarni o'ziga xos tasvirlarda bayon qilgan. Kitobni o'qib, sadoqat, mehr-muruvvat kabi sof insoniy fazilatlar, bizga berilgan eng ulug'ne' matlardan ekanini his etasiz.

### UCH BUKUR FRANSUZ

Ushbu asar orqali Fransiyaning uchta davlat arbobi, mamlakatning yuksalishiga ulkan hissa qo'shgan va shu sababli fransuz xalqining ulug' kishilari qatoridan joy olgan qahramonlar – kardinal Rishle, Napoleon Bonapart hamda Sharl de Goll hayoti va faoliyati bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lasiz. Qolaversa, bu asar bugun dunyo bilan bo'yashayotgan siz yoshlarning jahon xalqlari, jumladan, Fransiya haqidagi bilimlaringizni yanada boyitishga xizmat qiladi. Shuhrat Ergashev qalamiga mansub mazkur kitobda mashhur tarixchilarning fikrlari ham keltirilgan.

Aziz o'quvchilar! Tahririyatimizga yo'llayotgan maktublaringiz orqali yana qanday kitoblarni o'qishni istashingiz haqida, albatta, yozib yuboring.

## EZGULIK BUNYODKORLARI

Bir oy avval «Nafis san'at» to'garagi rahbari Muzaffar aka Begmatov shogirdlariga «Sog'lom bola yili» munosabati bilan maktabimizda rasmlar tanlovini o'tkazamiz, g'oliblarning ijodiy ishlaridan ko'rgazma tashkil etamiz, dedilar.

Iqtidorli o'quvchilar ko'p izlanishdi, kitoblarga, gazeta-jurnallarga murojaat qilishdi. Nihoyat, o'quvchilarning izlanishlari o'z samarasini berdi.

Tanlovga to'plangan ijodiy ishlarni kuzatar ekanman, ayrim rasmlarni alohida saraladim. Ular bir qaraganda oddiydek ko'rinsa-da, biroq rasmlardagi tasvirlar biz kattalarni befarq qoldirmasligi aniq, – deydi Samarqand viloyati, Qo'shrabot tumanidagi 68-umumta'lim maktabining tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi Muzaffar



aka Begmatov. – Ziyarak o'quvchilar chizgan rasmlari orqali o'z tengdoshlarini hushyorlikka chorlab, chekish, giyohvandlik salbiy oqibatlariga olib kelishini bayon etishgan. Bu bizni nihoyatda quvontirdi.

O'quvchilarning ijodiy ishlarini ko'zdan kechiramiz. 5-«A» sinf o'quvchisi Malika Muhiddinovaning «Dada, chekmang», 6-«A» sinf



o'quvchisi Diyora Hamiyevaning «Bizi zaharlamang», 3-«A» sinf o'quvchisi Feruza Otaqulovaning «Illat oqibati» deb nomlangan rasmlarida nosog'lom turmush tarzi bayon etilgan bo'lsa, 4-«A» sinf o'quvchisi Muyassar Murtazoyevaning «Oilaviy sport», Diyora Hamiyevaning «Baxtli bolalik» kabi rasmlarida sog'lom bola nafaqat oilaning, balki yurtning faxri, millatning tayanchi ekanligi ifodalangan.



Aziz qizlarjon, salatlarining inson organizmiga qanchalik foydali ekanligi hammamizga ma'lum. Quyida sizga tavsiya etmoqchi bo'lgan xushta'm salatimiz ham bundan mustasno emas.

### Kerakli masalliglar:

2 dona qaynatilgan lavlagi,  
2 dona olma, 50 gramm  
yong'och, yarim bog'  
ko'kat, 100 gramm  
qaymoq, ta'bga ko'ra tuz.

Tayyorlanishi: po'sti  
archilgan olma urug'idan  
tozalanaadi va somoncha shaklida  
to'g'raladi. Qaynatilgan qizil lavlagi ham

somoncha shaklida  
to'g'ralib, olмага  
qo'shiladi. Tuzi  
rostdlangach, qay-  
moq bilan qorishtiriladi.  
Ustiga bezak berish uchun  
maydalangan yong'och sepi-  
ladi va dasturxonga tortiladi.  
Yoqimli ishtaha!

NARGIZA tayyorladi



21-aprel 2014



### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yeshlar ijtimoiy harakati Markazi  
Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Inkmunatga  
qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston Matbuot  
va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Sa'dullo TURSIONOV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Sobitxon TURG'UNOV,  
Zikrilla TESHABOYEV

Navbatchi  
muharrir  
Dilorom  
HOTAMOVA  
Rassom  
Feruz  
MATYOQUBOV  
Dizayner  
Olovuddin  
ORIPOV

Manzilimiz:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz

Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda  
chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,  
mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni  
chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 53899  
Buyurtma N: J 9704